

## QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASHTIRISHNING ISTIQBOLLARI.

**Sattorova Hikmatullo Hayatullayevich**

*Andijon Agroservis MTP, MCHJ*

*Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish.*

**Islomova Dildoraxon Fatxiddin**

*Andijon qishloq xo'jaligi va*

*Agrotexnologiyalari Instituti qishloq xo'jaligi*

*Maxsulotlarini saqlash dastlabki ishlash*

*Texnologiyasi magistranti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada respublikada qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqaruvchi mahalliy tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi texnikasini sotib olish uchun subsidiyalarni taqdim etish, shuningdek xorijda xizmatlar ko'rsatish (xizmatlarni eksport qilish) maqsadida kombaynlarni tashish uchun transport xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplash tartibini haqida fikr yuritiladi*

**Kalit so'zlar:** *texnika, subsidiya*

Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash — qishloq xo'jaligida insonning jismoniy (qo'l) mehnatini mashina va mexanizmlar bilan bajarish. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda mehnat sharoitlarini yaxshilash ishidagi eng muhim masalalardan biri. Qishloq xo'jaligining mahsuldorligi seleksiya, kimyolashtirish va boshqa bilan bir qatorda barcha turdagi qishloq xo'jaligi ishlarini mexanizatsiyalash darajasi bilan belgilanadi. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri — mehnatning energiya bilan qurollanishi [ishlab chiqarish jarayonida mehnatning barcha turdagi (elektr, mexanik va issikdik) energiya bilan ta'minlanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkich] va texnika bilan kurollanishi darajasidir. Qishloq xo'jaligim. darajasi mehnatni mexanizatsiyalash bosqichi bilan, ya'ni mexanizatsiyalashgan mehnat salmog'ining qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishga sarflangan umumiy xarajati bilan baholanadi

Endi esa quyidagi terminlar bilan tanishib chiqsak: qishloq xo'jaligi mashinasozligining mahalliy tashkiloti — O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqaruvchi tashkilot hisoblanadi qishloq xo'jaligi texnikasi — O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan barcha turdagi qishloq xo'jaligi texnikalari bo'lib bugungi kunda qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirishda ko'maklashadigan asosiy omil hisoblanadi..

Innovatsiyalar qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda har qachongidan ham muhimroqdir. Umuman olganda, qishloq xo'jaligida ta'minot xarajatlarining ko'tarilishi,

ishchi kuchining yetishmasligi, shaffoflik va barqarorlik uchun iste'molchilarning afzalliklarining o'zgarishi kabi katta muammolar shakllanmoqda. Yuqoridagi muammolarni hal qilish maqsadida bir qancha kompaniyalar ish olib bormoqda va ularning soni tobora ortib bormoqda.

Common IELTS mistakes (part 2): Writing

Fermer xo'jaliklarini avtomatlashtirish, ko'pincha "aqli dehqonchilik" tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, bu fermer xo'jaliklarini samaradorligini oshiradigan ekin va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish siklini avtomatlashtiradigan texnologiyadir. Dronlar, avtomatlashgan traktorlar, robotli kombaynlar, avtomatik sug'orish va ekish texnikalarini yaratish bo'yicha robototexnika bo'yicha ish olib borayotgan kompaniyalar soni ko'paymoqda. Ushbu texnologiyalar juda yangi bo'lsa-da, an'anaviy qishloq xo'jaligi kompaniyalari tobora ko'payib bormoqda, bu jarayonlarda fermer xo'jaliklari avtomatlashtirishni o'zlashtirmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Obidov. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish
2. Ismatov. I. "Dehqonchilikda yangi texnologiyalarnig qo'llanishi"
3. O'zbekiston yosh fermerlar kengashi